

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA BANDLIKKA KO'MAKLASHISHDA
XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
ОБЛАСТИ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОНОМИКЕ НАШЕЙ СТРАНЫ

THE CURRENT STATUS OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN
CONTRIBUTING TO EMPLOYMENT IN OUR COUNTRY'S ECONOMY.

Soyibjonov Islomjon Sodiqjon o'g'li

Namangan davlat universiteti "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası o'qituvchisi
soyibjonovislombek93@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi va hozirgi holati chuqur tahlil qilingan. Xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratish, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, qonunchilik islohotlari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda biznes muhitining yaxshilanishi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, xususiy sektorning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar, tadbirkorlik muhiti, biznes innovatsiyalari, iqtisodiy islohotlar, davlat qo'llab-quvvatlovi, soliq tizimi, raqobatbardoshlik, moliyaviy resurslar, bandlik, eksport salohiyati, biznes infratuzilmasi, kreditlash tizimi.

Аннотатсия: В настоящем исследовании дан углубленный анализ уровня развития и современного состояния частного предпринимательства в Республике Узбекистан. Частное предпринимательство является важной составляющей экономики страны и играет значительную роль в создании новых рабочих мест, увеличении валового внутреннего продукта и повышении благосостояния населения.

В исследовании рассмотрены роль частного предпринимательства в экономике и основные факторы, влияющие на его развитие, включая законодательные реформы, меры государственной поддержки, улучшение деловой среды. Одновременно были разработаны предложения и рекомендации по оценке текущего состояния частного сектора, существующих проблем и путей их решения.

Ключевые слова: Частное предпринимательство, малый бизнес, экономическое развитие, инвестиции, бизнес-среда, бизнес-инновации, экономические реформы, государственная поддержка, налоговая система,

конкурентоспособность, финансовые ресурсы, занятость, экспортный потенциал, бизнес-инфраструктура, система кредитования.

Abstract: This study provides an in-depth analysis of the level of development and current state of private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. Private entrepreneurship is an important component of the country's economy, playing a significant role in creating new jobs, increasing GDP, and improving the well-being of the population.

The study examined the role of private entrepreneurship in the economy, the main factors influencing its development, including legislative reforms, state support measures, and improving the business environment. At the same time, the current state of the private sector, existing problems, and proposals and recommendations for their elimination were developed.

Keywords: Private entrepreneurship, small business, economic development, investments, business environment, business innovations, economic reforms, state support, tax system, competitiveness, financial resources, employment, export potential, business infrastructure, lending system.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va o'sish sur'atlarini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik faoliyatining roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, jumladan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratdi. Xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi esa, nafaqat iqtisodiy o'sish, balki mamlakatda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatni rivojlantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ham ta'minlamogda[1].

O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususiy tadbirkorlik faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarishdan tortib, xizmat ko'rsatish sohasigacha bo'lgan keng ko'lamli faoliyatlar bilan shug'ullanishmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi iqtisodiyotning muhim qismi sifatida qaraladi, chunki ular yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobatni oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[2].

Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi davomida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bular orasida tadbirkorlarning soliqqa tortish tizimi, kreditorlar bilan munosabatlar, davlat organlarining nazorat funksiyalari va iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirish lozim. Bunday tadbirlar, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun iqtisodiy o'sishning omillari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, xususiy tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holati va uning rivojlanish darajasi o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda tahlil qilinishi zarur.

Mazkur mavzu, O'zbekiston iqtisodiyotining xususiy sektori va uning rivojlanish darajasini o'rganish orqali, mamlakatning iqtisodiy siyosatini, tadbirkorlik muhitini va ularga yaratilgan sharoitlarni yanada takomillashtirish uchun yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlik

faoliyatining bugungi holatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ushbu jarayonda davlatning rolini belgilash muhimdir. Bu ish, nafaqat iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, balki mamlakatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy farovonlik va xalq turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi va hozirgi holatini o'rganish, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligi va global raqobatbardoshligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Tadqiqot, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qonunchilik bazasini mustahkamlash, davlat yordam tizimini takomillashtirish va xususiy sektorda innovatsion faoliyatni kengaytirish bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi[2].

Tadqiqot ishiga oid adabiyotlar tahlili.

Xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy jarayonlardagi o'rni bir qancha iqtisodiy nazariyalarda tadqiq etilgan. Adam Smit (1776) va Deyvid Rikardo (1817) kabi klassik iqtisodchilar bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini tartibga solish tamoyiliga asoslangan holda tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ta'kidlaganlar[3]. Ularning fikricha, erkin bozor sharoitida tadbirkorlik tashabbuslari resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

J.Shumpeter (1934) innovatsion tadbirkorlik nazariyasini ilgari surib, xususiy tadbirkorlarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rsatgan. Uning fikricha, yangi mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish orqali tadbirkorlar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi[4].

Zamonaviy iqtisodchilardan P.Drucker (1985) tadbirkorlikni boshqarish tamoyillari va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rgangan bo'lib, u tadbirkorlikni innovatsion jarayon sifatida tasvirlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorni rivojlantirishning o'rni bo'yicha K.Abduqodirov (2021) va R.Jo'rayev (2022) tadqiqotlarida xususiy tadbirkorlik subyektlarining makroiqtisodiy o'zgarishlarga ta'siri, mehnat bozoridagi roli va hududiy rivojlanish strategiyalaridagi o'rni o'rganilgan.

T.Ibragimov (2019) tadqiqotida O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasidagi islohotlar tahlil qilingan. Uning fikriga ko'ra, soliq yukining kamaytirilishi, kreditlash imkoniyatlarining kengaytirilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida tadbirkorlik sezilarli rivojlangan.

Xalqaro tajribaga asoslangan holda M.Xolmurodov (2021) o'z tadqiqotida Angliya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkinligini tahlil qilgan. Unga ko'ra, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun texnologik innovatsiyalar, venchur kapital bozori va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

B.Usmonov (2022) o'z izlanishlarida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar tizimini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib, bandlikni oshirish, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmini kengaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot doirasida xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi, hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi va hozirgi holatini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasida nazariy tahlil usullari, empirik tahlil usullari va iqtisodiy-statistik tahlil usullari foydalanildi.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishda sistemali, kompleks va dinamik ilmiy yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqot uchun foydalaniladigan asosiy ma'lumot manbalari quyidagilar, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat dasturlari, Davlat Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa davlat organlarining statistik va analitik ma'lumotlari, ilmiy tadqiqot institutlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va mustaqil tahlil markazlari tomonidan e'lon qilingan hisobot va ma'ruzalar.

Tadqiqot natijalari xususiy tadbirkorlik rivojlanishining bugungi holati va kelajakdagi istiqbollari aniqlash, sohadagi mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu tadqiqot xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga oid davlat siyosatini shakllantirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari har bir mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ular yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va aholi farovonligini oshirishda iqtisodiy o'sishning asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakatimizda ham xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, uning raqobatdoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarida xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi, qonunchilik bazasi takomillashtirildi va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi. Mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektorning o'rne yil sayin ortib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va ijtimoiy ahamiyati oshib bormoqda[5].

Shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyati nafaqat ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlaydi, balki eksport salohiyatini kengaytirish orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes sub'ektlari, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida xususiy tadbirkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bundan tashqari, davlat tomonidan xususiy tadbirkorlarni moliyaviy va ma'muriy qo'llab-quvvatlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Elektron ro'yxatdan o'tish, raqamli

texnologiyalardan foydalanish va xalqaro tajribani tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususiy sektorni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda[6].

Xususiy sektor nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki aholining turmush darajasini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. O'tgan yillarda mamlakatda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun bir qator kompleks islohotlar amalga oshirildi. Bu sohani rivojlantirishdagi maqsad nafaqat ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan[7].


Kichik biznes subektlarining eksportdagi ulushi 2010-2024 yillar davomida bir necha muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Bu davr mobaynida iqtisodiy o'sish, pandemiya, davlat siyosatlari va global bozordagi o'zgarishlar ulkan ta'sir ko'rsatdi.

2010 yilda kichik biznesning eksportdagi ulushi 13,7% ni tashkil etgan. 2011 yilda bu ko'rsatkich 18,8% gacha ko'tarilgan, bu esa 37,2% o'sishni ko'rsatadi. Biroq, 2012 yilda ulush 14% ga tushgan, bu esa -25,5% pasayish deganidir. 2013 yilda ulush 26,2% ga, 2014 yilda 27% ga yetdi. 2015 yilda ushbu ulush 27% darajasida saqlanib qoldi. 2016-2017 yillarda eksport ulushi 26% → 22% ga tushdi. 2018-2019 yillarda esa 27,2% → 27% darajasiga qaytdi. Bunga asosiy sabab qilib, yirik kompaniyalar eksportdagi ulushini oshirgani, bozordagi raqobatning kuchayishi bilan izohlashimiz mumkin. Biroq 2018-2019 yillarda davlat qo'llab-quvvatlash siyosatlari sababli ulush yana o'sishga erishdi.

2020 yilda eksport ulushi 20,5% ga, 2021 yilda esa 20% ga tushdi. Bunga asosiy sabablar COVID-19 pandemiyasi, Logistika muammolari va Eksport bozorlaridagi talabning kamayishini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlantirishdagi islohotlar va qulay shart-sharoitlar yaratilishi sababli 2022 yilda kichik biznes eksport ulushi 31,2% ga yetdi (tarixiy eng yuqori ko'rsatkich!). 2023 yilda 27,9%, 2024 yilda 29,425% ga tushdi, ammo o'sish tendensiyasi saqlanib qoldi. Shuningdek, davlat tomonidan iqtisodiy tiklanish uchun rag'batlantirish dasturlarining joriy etilishi, kichik biznesni texnologik modernizatsiya qilish va raqamlashtirish va eksport bozorlarining qayta ochilishini ham e'tirof etish lozim.

1-grafik. O'zbekiston iqtisodiyotidagi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport ulushlari 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi¹⁵.




¹⁵ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

Namangan viloyati bo'yicha 2010 yilda eksport ulushi eng yuqori (86.9%) bo'lgan, ammo 2010-2012 yillarda sezilarli tushish kuzatilgan. 2014-2017 yillarda eksport ulushi yuqori darajada saqlangan, ammo keyin pasayish tendensiyasi boshlangan. Toshkent shahri misolida esa 2011 va 2013 yillarda eksport ulushi keskin oshgan (45.7% va 49.3%), ammo keyin pasayish kuzatilgan. Ushbu hududda 2022 va 2024 yillarda eksport ulushi barqarorlangan. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar 2010 yildan 2013 yilgacha o'sish kuzatilgan, keyin esa ayrim yillarda pasayish qayd etilgan. 2022 yilda ma'lumotlarning tiklanishi va 31.2% ga oshishi kuzatilgan.

Tahlil natijalari ko'ra O'zbekiston bo'yicha eksport ulushining o'rtacha yillik o'sish sur'ati: 9.59%. O'zgaruvchanlik darajasi (standart og'ish): 5.37%, ya'ni barqaror o'sishga yaqin. Namangan viloyatida o'rtacha yillik o'sish sur'ati manfiy: -3.37%. Bu hududda vaqt davomida eksport ulushi pasayib borayotganini anglatadi. Standart og'ish: 18.23%, ya'ni ma'lumotlar sezilarli darajada o'zgaruvchan. Toshkent shahrida esa o'rtacha yillik o'sish sur'ati: 13.39%, bu eng yuqori ko'rsatkich. Standart og'ish: 10.41%, ma'lumotlar o'rtacha o'zgaruvchan.

2-grafik. O'zbekiston iqtisodiyotidagi Respublika, Toshkent Shahar va Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksport ulushlari 2010–2024 yillar davomidagi dinamikasi¹⁶.



Xususiy tadbirkorlik har qanday iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi iqtisodiyotda yuqori dinamika, ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishdan iboratdir. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uni rivojlantirish orqali davlat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishni maqsad qilgan[8].

Bugungi kunda xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushunish uchun uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini chukurroq tahlil qilish lozim. Xususiy


¹⁶ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi - yangi imkoniyatlar yaratish, bozorning raqobatdoshligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashdir. 1-rasmi bo'yicha xususiy tadbirkorlik faolitini mamlakatimiz iqtisodiyotida ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri, balki aholini ish bilan ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mustaqillik yillaridan buyon mamlakatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, soliq yukini yengillashtirish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali xususiy sektorning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada kuchaydi.

Aholining yosh tarkibi o'sib borayotgan O'zbekiston sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish iqtisodiyot uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususiy tadbirkorlik bu masalani samarali hal qilish uchun eng mos iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik va o'rta biznes sub'ektlari qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohalarida aholini keng miqyosda ish bilan ta'minlab kelmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida xususiy tadbirkorlik aholining bandligini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shmoqda[9].

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lganlar soni 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda o'zgarishlarga uchragan. Umumiy xolda, bu davrda kichik tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lganlar soni o'sib borganini ko'ramiz, ammo ayrim yillarda pasayish ham kuzatilgan.


1-rasm. Xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati



2010-yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lganlar soni 8643,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 10373,3 ming kishiga yetib bordi. Bu davrda umumiy o'sish 20% dan ortiqni tashkil etdi.


3-grafik. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni¹⁷.

¹⁷ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>



2010-2017 yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lganlar soni doimiy ravishda o'sib bordi. 2018-yilda bir oz pasayish kuzatildi (10128,8 ming kishi), ammo 2019-yilda yana o'sish kaytalandi. 2020-yilda pandemiya sharoitida bir oz pasayish kuzatildi (9865,7 ming kishi), ammo 2021-yildan boshlab yana o'sish boshlandi.

2010-2023 yillar davomida Namangan viloyatida band bo'lganlar soni yildan-yilga o'zgarib turadi. Eng yuqori o'zgarish 2019 yilda kuzatiladi, bu yil band bo'lganlar soni 42.4 ming kishiga oshgan. 2020 va 2022 yillarda salbiy o'zgarishlar kuzatilgan, ya'ni band bo'lganlar soni kamaygan. 2020 yilda pandemiya ta'siri natijasida bu kamayish sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni ortib borgan. Shuningdek, 2010-2023 yillar o'rtacha o'sish sur'ati yuqori (42.5%) bo'lgan, bu viloyat iqtisodiyotining kichik tadbirkorlik sektori rivojlanayotganligini bildiradi.



4-grafik. Respublika bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni (ming kishi)¹⁸.

Xususiyl tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlashdagi ahamiyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

¹⁸ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

Birinchidan, ish o'rinlari yaratishdagi roli. Xususiy tadbirkorlik aholining mehnat resurslarini samarali ishlatish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

Ikkinchidan, yoshlar va ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokiga ko'maklashish. Hunarmandchilik va kichik biznes orqali ularni iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish aholi daromadlarini oshiradi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar

Demak, yuqoridagi keltirilgan fikrlar bugungi kunda haqiqatdan ham ahamiyatli deb hisoblaymiz. Hamda bu muammolarni o'z echimini topish dolzarb bo'lib turibdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish jabhalaridagi muammolarni hal etish va tegishli chora-tadbirlarini ko'rib borish har birimizning vazifamizga aylanishi kerak.

Eksport faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy mahsulotlarning yangi istiqbolli bozorlarga kirib borishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda PF-286-son farmonini ham alohida ta'kidlash kerak. Unga ko'ra quyidagilarni aytish lozim:

1. Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar hisobidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida so'ndirib kelayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga kreditning so'ndirilgan qismiga mutanosib ravishda qo'shimcha kreditlar ajratish;

2. Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalari va eksportoldi moliyalashtirish kreditlari uchun moliyaviy resurslar taqdim etish hamda eksport qilishda tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati natijalari mamlakat YaIMga katta hissa qo'shayotganligini va iqtisodiyotda tutgan o'rni muhim ekanligini ko'rib chiqdik. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish lozim deb hisoblaymiz:

- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati eksport ulushini oshirish maqsadida, eksport operatsiyalari bo'yicha tashqi xarajatlarini qoplab berishga qaratilgan moliyaviy yordam turlarini yanada qulay ko'rinishlarini joriy qilish lozim;

- tashqi bozorda milliy mahsulotimizni raqobatbardoshligini oshirish maqsadida logistika harajatlarini qisqartirish orqali erishish;

- eksportyor korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli jamg'armalardan rag'batlantirish;

- horijiy mamlakatlar tadbirkorlari bilan mahalliy tadbirkorlarning tajriba almashishi va hamkorlikda ishlarni joriy etish maqsadida yarmarkalarni tashkil qilish;

- horijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida investorlarga xususiy mulk daxlsizligini huquqiy asosda himoyalashni yanada takomillashtirish, imtiyozli soliq stavkalarini joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" – T.: 2022 yil 21 dekabr, PF-268-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – T.: 2022 yil 30 sentyabr, PF-228-son.
3. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: TDAU, 1998.
4. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya – M.: 1982. S. 159.
5. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2010
6. Кенжаев И.Э., Балтабаев М.Т., Абдурахманов Ш.Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
7. Siddikov, A.M., Baltaboev, M.T. and Abduraxmonov , S.S. 2022. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 3, 11 (Nov. 2022), 76-80.
8. Abduraxmonov S. S. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.
9. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
10. <https://stat.uz/uz/>